

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1193 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarni-nig ulushi **-0,4 f.p kamaygan.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1138 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-may oyida viloyatimizda 1467 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa ona va tashkilotlar soni 1193 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan 273 taga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 38,4 % yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni 329 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxonya va tashkilotlar soni 1193 ta (6,5 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 19664 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 329 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin. Qarshi shahrida (21,3 %), Koson (8,7 %), Chiroqchi (7,8 %) va Qarshi (7,5 %) tumanlarda kuzatilmoqda.

## Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning tumanar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
<b>Qashqadaryo viloyatida</b>	<b>20328</b>	<b>100,0</b>	<b>19664</b>	<b>100,0</b>
Qarshi shahar	4408	21,7	4186	21,3
Shahrisabz shahar	1314	6,5	1303	6,6
<b>tumanlar:</b>				
G'uzor	915	4,5	837	4,3
Dehqonobod	1028	5,1	947	4,8
Qamashi	1366	6,7	1349	6,9
Qarshi	1511	7,4	1484	7,5
Koson	1721	8,5	1704	8,7
Kitob	1422	7,0	1413	7,2
Mirishkor	617	3,0	603	3,1
Muborak	784	3,9	735	3,7
Nishon	710	3,5	687	3,5
Kasbi	712	3,5	675	3,4
Chiroqchi	1582	7,8	1542	7,8
Shahrisabz	875	4,3	859	4,4
Yakkabog'	1363	6,7	1340	6,8

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**



01.01.2018 y.




01.06.2018 y.


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,7 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,3 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi –0,4 ga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,3 % savdoda, 12,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 12,1 % qurulishda, 11,4 % sanoatda, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % axborot va aloqa va 29,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



### **Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda**




2018 yil yanvar-may holatiga 1467 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Qarshi shahrida (289 ta), Chiroqchi (126 ta), Yakkabog' (120 ta) va Qamashi tumanlarida (105 ta) tashkil etilgan. Eng kam G'uzor (50 ta), Kasbi (50 ta) hamda Mirishkor (59 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### **Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (238 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (237 ta), sanoatda (213 ta), qurilishda (201 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari (60 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (16 ta), tashish va saqlashda (35 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (48 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga	2018 yil yanvar-may holatiga
<b>Jami:</b>	<b>1194</b>	<b>1467</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	277	237
Sanoat	261	213
Qurilish	139	201
Savdo	224	238
Tashish va saqlash	39	35
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	80	60
Axborot va aloqa	17	16
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	24	48
Boshqa turlari	133	419

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi savdoda (-1,6 f.p) va sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,5 f.p.), qurilishda (+0,5 f.p.), axborat va aloqa (+0,1 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+1,8 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda**


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+)
Savdo	23,3	25,0	-1,6
Sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,2	3,2	-1,0
Tashish va saqlash	3,7	3,9	-0,2
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,6	12,8	-0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4,1	4,1	0,0
Axborot va aloqa	1,2	1,1	0,1
Qurilish	12,1	11,6	0,5
Sanoat	11,4	10,9	0,5
Boshqa turlari	29,4	27,5	1,8

### **Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 iyun holatiga 15662 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 6984 ta, oilaviy korxonalar – 589 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7291 ta, aktsiyadorlik jamiyatları – 42 tani va boshqalar 756 tani tashkil etadi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 58 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga yoki 13,7 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 45 tasi qo'shma korxonalar, 13 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarining soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahar 24 ta (39,3 %), Kitob tumani 8 ta (13,1 %) Muborak va Qamashi tumanlari 4 ta (6,6 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Dehqonobod, Yakkabog' tumanlarida va Shahrisabz shahri 1 ta (1,6 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlan-tirishni talab etadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 36 ta (62,1 %), savdoda 9 ta (15,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (10,3 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda hamda axborot va aloqada 1 ta (1,7 %), qurilish va boshqa turlar 2 ta (5,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'gri keladi.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**




2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 7 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga ko'paygan yoki 2,5 baravarga oshgan.

Bunda, AQSh rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-3 ta, Janubiy Koreya Respublikasi– 3 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 15522 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 6,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 3439 tasi (22,2 %) Qarshi shahriga, 1389 tasi (8,9 %) Koson, 1243 tasi (8,0 %) Qarshi hamda 1180 tasi (7,6 foizi) Chiroqchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15522 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4566 tasi (29,4 %) – savdoda, 2451 tasi (15,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 2351 tasi (15,1 %) - qurilishda, 2196 tasi (14,1 %) - sanoatda, 789 tasi (5,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 704 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 316 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 225 tasi (1,4 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1924 tasi (12,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 1406 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,7 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Qarshi shahrida (271 ta), Chiroqchi (120 ta), Yakkabog' (116 ta) va Qarshi tumanlarida (104 ta) tashkil etilgan. Eng kam G'uzor (48 ta), Kasbi (49 ta) hamda Muborak (58 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (238 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (237 ta), sanoatda (213 ta) va qurilishda (201 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (16 ta), tashish va saqlashda (35 ta) hamda sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (48 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 602 tani tashkil etib, ulardan 589 tasi yoki 97,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **21,4 %**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 28,0 % yoki 165 tasi sanoat, 19,5 % yoki 115 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 18,0 % yoki 106 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 15,8 % yoki 93 tasi savdo, 2,4 % yoki 14 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 2,0 % yoki 12 tasi qurilish, 1,7 % yoki 10 tasi tashish va saqlash, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa hamda 12,3 % yoki 72 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da**



**Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi boshlig'i**

Nashr uchun mas'ul: **T.Karayev**  
(0371) 230-84-10

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYaDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan**